

**YAKKABOG' TUMANI TOPONIMLARINING
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA
TARIXIY-LINGVISTIK JIHATLARI**

Sayfullayev Zuhriddin Asliddin o‘g‘li

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim
kafedrasи o‘qituvchisi*

**ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И
ИСТОРИКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ
ТОПОНИМОВ ЯККАБАГСКОГО РАЙОНА**

Cайфуллаев Зухридин Аслиддин угли

*Преподаватель кафедры начального образования
Шахрисабзского государственного педагогического
института*

**LINGUOCULTURAL FEATURES AND
HISTORICAL-LINGUISTIC ASPECTS OF THE
TOPONYMS OF YAKKABOG DISTRICT**

Sayfullaev Zuhriddin Asliddin ogli

*Lecturer at the Department of Primary Education, Shahrisabz State
Pedagogical Institute*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yakkabog‘ tumani toponimlari lug‘aviy-ma’naviy xususiyatiga ko‘ra tasniflanib, o‘rganilgan. Tadqiqotda toponimlari o‘rganilayotgan hudud tarixi, toponimlarining vujudga kelishi va ularning grammatic xususiyati masalasiga ham e’tibor qaratilgan. Ilmiy ishning obyekti va predmeti Yakkabog‘ tumani toponimlar majmuidan iborat bo‘lib, metodologik asosini onomastika sohasida atoqli otlarni o‘rganishda ishlatalilgan ilmiy qarash, tahlil va tadqiq etish usullari tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: Yakkabog‘, toponim, lingvomadaniy, toponimik aniqlagich, lug‘aviy-ma’noviy tasnif, onomastik tizim, obyekt.

Аннотация. В научной работе топонимы единственного числа были проанализированы и изучены с точки зрения их лексико-семантической природы. В исследовании также рассматривается вопрос об истории местности, в которой изучаются топонимы, о происхождении топонимов и их грамматической природе. Объект и предмет научной работы составляют совокупность топонимов, методологической основой которой являются методы научного видения, анализа и исследования, используемые при изучении пословиц о лошадях в области ономастики.

Ключевые слова: Яккабаг, топоним, лингвокультура, топонимический определитель, лексико-семантическая классификация, ономастическая система, объект.

Annotation. In scientific work, the toponyms of the singular were nasnifted and studied according to their lexico-spiritual nature. The study also focuses on the issue of the history of the area in which toponyms are studied, the occurrence of toponyms and their grammatical nature. The object and subject of scientific work consists of a set of toponyms, the methodological basis of which is the methods of scientific vision, analysis and research used in the study of proverbial horses in the field of onomastics.

Keywords: Yakkabog, toponym, linguomadanium, toponymic determinant, lexicon-meaning classification, onomastic system, object.



E-mail:

zuxriddinsayfullayev@gmail.com

Orcid: 0009-0005-9963-3354

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Yakkabog' tumani qadimdan o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy geografik sharoiti va etnolingvistik tarkibi bilan ajralib turadi. Tumandagi ko'plab qishloq, mahalla, daryo, tog' va boshqa geografik obyektlarning nomlari xalq og'zaki ijodi, tarixiy voqealar va turli til qatlamlari bilan bog'liq holda shakllangan. Bu toponimlar zamirida mahalliy aholi dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va til madaniyati mujassam bo'lib, ularni chuqur ilmiy tahlil etish lingvistika, tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik sohalari kesishmasida turadi.

Mazkur maqolada Yakkabog' tumani toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi, ularning semantik tuzilishi, etimologiyasi, tarixiy qatlamlari va til taraqqiyotidagi o'rni o'rganiladi. Shu bilan birga, ushbu toponimlarning xalq ruhiyati, urf-odatlari va tarixiy-madaniy meros bilan bog'liqligiga alohida e'tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Toponimlar — bu xalq tilida asrlar davomida shakllanib kelgan, muayyan joy, hudud, tabiiy obyekt yoki ijtimoiy muhitni ifodalovchi nomlardir. Har bir toponim zamirida muayyan madaniy-tarixiy kontekst, xalq dunyoqarashi, mentaliteti va tarixiy xotirasi mujassam bo'ladi. Yakkabog' tumanidagi toponimlar shu jihatdan alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning ko'pi qadimiy turkiy, forsiy va arabiylardan o'zlashtirilgan bo'lishi bilan ajralib turadi [1].

Masalan, "Yakkabog'" so'zining o'zi "yakka" (yolg'iz) va "bog'" (bog', gulzor) so'zlaridan tashkil topib, qadimda bu hududda alohida ajralib turgan, yirik bog' mayjud bo'lganini bildiradi. Bunday nomlarda hududning tabiiy sharoiti va tarixiy holati ifodasini topgan.

MUHOKAMA

(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Quyida ushbu hududda joylashgan bir qator toponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari va tarixiy-lingvistik jihatlari keltirilgan:

Ishkent — Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi. Tarkibi: ish+kent. O'zbek tilidagi uch, ust so'zları asosida, tog'ning ust, uch qismidagi qishloq tarzida izohlanish holatlari bor. Qashqadaryo tarixshunosi P.Ravshanov VIII asr boshida Naxshab

va Kesh qal'aları garnizonining boshlig'i Ashkend/Ashkand Amudaryo orqali bostirib kelayotgan arab istilochisi Asadga qarshi kurashganini qayd qilgan. 720-740-yillarda Keshning hukmdori Shikend bo'lgan. U joy nomiga nisbat etilgan. Ashkend/Ishkend/Shikend — o'zakdosh. Sug'd hujjatlarida Xishkent nomli qishloq zikr etilgan. U Zarafshon yuqorisidagi Parg'arda bo'lgan. So'z boshida (x) undoshi tushgan; xish/ish,ma'nosi — g'isht ya'ni tosh. Ishkent-toshqo'rg'on, tog' ichidagi qo'rg'on [2].

To'rtog'ayni — Yakkabog' tumanidagi qishloq. Tarkibi: to'rt+og'ayni. Akademik K.Shoniyofov Farg'ona vodiysi qipchoqlarining to'rtog'ayni urug'i bo'lganligini aniqlagan. Bu urug'ni to'rt ayg'ir ham deyishgan. Shu nomdagagi urug' qirg'iz-qipchoqlarda ham bo'lgan. Qashqadaryo o'rta oqimi saroylarining bir urug' tarmog'i - to'rtog'ayni. Laqaylarning to'rtovul, to'rt o'g'il degan urug'i bo'lgan. To'rtog'ayni, to'rtovul, to'rto'g'il etnonimlari bir xil tamoyil asosida yuzaga kelgan. Qishloq saroylarning urug'i nomi bilan atalgan [3].

Cho'mich — Yakkabog' tumanidagi mahalla. Uy-ro'zg'or asboblaridan biri -cho'mich. U uzun dastali bo'lib, suyuq ovqatlarni qo'zg'ash, shopirish uchun tol yog'ochidan tayyorlangan, uch qismi kosasimon bo'lgan. Qadimda chorvadorlarning cho'michga o'xshash tamg'asi bo'lgan. Mollarga bosiladigan tamg'asi va tug'idagi tasvir cho'mich shaklida bo'lgan. Tamg'asining shakli asosida urug' jamoasi nomlangan: cho'mich tamg'ali. Cho'michtamg'ali urug'i nomi qishloq nomiga o'tish jarayonida soddalashib, tamg'ali so'zi tushib bolgan.

Qoratut — Yakkabog' tumanidagi mahalla. Tarkibi: qora+tut. Qoratut-tut daraxtining bir turi, oqtut yoki balxitut — mevasi oq rangda bo'lib pishadigan tut. Qoratutning mevasi pishmagan vaqtida qizil rangli, pishib yetilganidan so'ng qora rangli bo'ladi. Qoratut daraxti kam uchraydi, mevasi dorivor bo'lganligi sababli qadrlanadi. Qoratutning yana bir mahalliy nomi — shotut. Kam uchrashi, mevasining dorivorligi kuchli bo'lganligi bois mahalliy aholi joy (qishloq)ni tut turi nomi bilan Qoratut deb atagan. Til tejamkorligi tamoyili nomni soddalashtirgan — bir so'zga aylantirgan [4].

Qo'shtegirmon – Yakkabog‘ tumanidagi qishloq. Tarkibi: qo'sh+tegirmon. Qo'sh – ikkita yoki bir nechta; yonma-yon joylashgan, bir-biriga tutash. Tegirmon- don mahsulotlarini yanchibun, yarma/yorma qiladigan, suv yoki hayvon kuchi bilan harakat qiladigan qurilma. Yonma-yon, yaqin masofada bir-biriga tutash bo'lgan tegirmon – Qo'shtegirmon. Qishloq tegirmon atrofida bonyod etilgani uchun shunday nom olgan [2].

NATIJALAR (РЕЗУЛТАТЫ/RESULTS). O'zbek xalqi juda qadim zamonlardan buyon o'zining madaniyati, san'atiga, o'z tiliga ham egadir. Ma'lum hududda juda qadim zamonlardan buyon yashab kelgan o'troq o'zbek qabilalari, ularning yashagan joylari, bugungi kundagi joy nomlari haqida ma'lumotlar juda ko'p. Har bir qabila yoki xalq yangi shakllangan o'zbek tiliga o'zining ulushini qo'shgan. Buni biz shu hududda yashovchi o'zbeklarning turli xil shevalarda, dialektlarda gapirishida, hatto urf-odatlarida ham ko'rishimiz mumkin. Bu hol joy nomlarining atalishiga ham sezilarli ta'sir etgan. Bir xil qabila yoki urug' nomining toponim sifatida bir necha territoriyada uchrashi mazkur qabilaning shu joylarda yashashi yoki yashab ketganligi natijasida sodir bo'lgan. Shuning uchun ham joy nomlarini o'rganishni tarix, arxeologiya, etnografiya kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq holda olib borish va ularning yutuqlariga asoslanmoq lozim. Bularga bir nechta misollarni keltirishimiz mumkin:

G'ozliq – Yakkabog‘ tumanidagi qishloq. Tarkibi: g'oz+liq. Qishloq aholisi qishloq yonidan o'tadigan jilg'a suvida o'tmishda yovvoyi g'oz ko'p bo'lgan, uchib-qo'nib yashab yurgani uchun g'ozliq joy, g'ozliq ko'l, g'ozliq SUV deb atalgan deb izohlashadi. G'oz – poyasi yo'g'on, uzun bo'yli qamish. G'ozliq-g'oz deb atalgan qamish turi ko'p o'sgan joydagi qishloq. Botqoq joy nomidan qishloq nomi yuzaga kelgan [2].

Chaydari – Yakkabog‘ tumanidagi qishloq. Choydori, choydoru tarzida ham yozishadi. Choy+dori so'zlarining ma'nolaridan izohlash hollari mavjud. Nomning tovush tarkibida o'zgarish yuz bergan. Azaliy shakli: chiy+dala. Qishloq quysisidagi xalqob joyda, chuqurlikda chiy-yo'g'on poyali qamishsimon o'simlik o'sganligi sababli chiyli+dala deb atalgan. Chiyli+dala – chiydala – Chiydala-Chaydala-Chaydari tarzida o'zgarish yuz

bergan. Chaydari-chiy o'simligi o'sgan joy. Dala nomi qishloq nomiga aylangan [2].

Toponimlar ham til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari tilning qonuniyatlariga bo'ysunadi. Lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlardan farq qiladi. Shu bilan birga, joy nomlari har bir millat tiliga xos bo'lgan qadimiylar fonetik, leksik va morfologik unsurlar ko'proq o'z ifodasini topadi. Joyning tabiiy geografik sharoiti, aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi [4].

XULOSA

(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Tadqiqot natijasida ma'lum bo'ldiki, Yakkabog‘ tumani toponimlari turli tillar elementlaridan tashkil topgan bo'lib, turli tarixiy davrlarda vujudga kelgan. Xullas, shuni ta'kidlashimiz mumkinki, Yakkabog‘ tumani toponimlari o'ziga xos alohida toponimik regionni tashkil qilgan onomastik birliliklardir. Yakkabog‘ tumani toponimlari tabiatning turli jihatlarini (tug‘lar, daryolar, tuproq, o'simliklar) o'zida aks ettiradi. Ularning ko'pchiligi turkiy tillar leksikasi, mahalliy shevalar va tarixiy voqealar bilan bog'liq. Masalan, "Qizildaryo" nomi temirga boy tuproqni, "Obizar" esa suvning oltin qadrini bildiradi. Bu toponimlarni o'rganish mintaqaning tabiiy resurslari va madaniy merosini tushunishda muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)

1. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024.
2. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1988.
3. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent. Muhamarrir nashriyoti, 2009.
4. Qishlog'ingiz nega shunday atalgan?. – Toshkent: O'zbekiston SSR Fan nashriyoti, 1989.